

ZO'RAVONLIK TUSHUNCHASI VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kuvatova Gulbonu Murodullayevna

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning psixologik xususiyatlari hamda shaxs rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda zo'ravonlikning kelib chiqishini tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlar, jumladan, Z. Freyd, E. Fromm, A. Bandura, L. Vygotskiy, A. Leontiev, S. Rubinshteyn, G'. Shoumarov, V. Karimova, L. Berkowitz va A. Raine qarashlari o'rganilgan. Zo'ravonlikka uchragan shaxslarda kuzatiladigan psixologik oqibatlar, zo'ravon shaxslarning psixologik va fiziologik xususiyatlari hamda agressiv xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari zo'ravonlik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, agressiya, agressor, zo'ravon shaxs, ijtimoiy o'rganish nazariyasi, psixologik xususiyatlar, biopsixososial model, oila muhiti, ijtimoiy moslashuv, o'smirlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются сущность понятия насилия, его психологические особенности и влияние на развитие личности. Проанализированы основные теоретические подходы к объяснению происхождения насилия, включая взгляды З. Фрейда, Э. Фромма, А. Бандуры, Л. Выготского, А. Леонтьева, С. Рубинштейна, Г. Шоумарова, В. Каримовой, Л. Берковица и А. Рейна. Освещены психологические последствия насилия, психологические и физиологические особенности агрессоров, а также механизмы формирования агрессивного поведения. Результаты исследования показывают, что насилие представляет собой сложное социально-психологическое явление, возникающее под влиянием биологических, психологических и социальных факторов.*

Ключевые слова: *насилие, агрессия, агрессор, насильник, теория социального научения, психологические особенности, биопсихосоциальная модель, семейная среда, социальная адаптация, подростки.*

Abstract: *This article examines the concept of violence, its psychological characteristics, and its impact on personality development. The study analyzes major theoretical approaches explaining the origins of violence, including the views of S. Freud, E. Fromm, A. Bandura, L. Vygotsky, A. Leontiev, S. Rubinstein, G. Shoumarov, V. Karimova, L. Berkowitz, and A. Raine. The psychological consequences of violence, the psychological and physiological characteristics of violent individuals, and the mechanisms underlying the development of aggressive behavior are discussed. The findings indicate that violence is a complex socio-psychological phenomenon resulting from the interaction of biological, psychological, and social factors.*

Keywords: *violence, aggression, aggressor, violent individual, social learning theory, psychological characteristics, biopsychosocial model, family environment, social adaptation, adolescents.*

KIRISH

Zo'ravonlik — bu bir shaxsning boshqa shaxsga qasddan zarar yetkazishi, unga bosim o'tkazishi yoki uning erkinligini cheklashidir. Zo'ravonlik jismoniy kuch ishlatish, haqoratlash, qo'rqitish, kamsitish, majburlash yoki moddiy jihatdan qaram holatga tushirish orqali namoyon bo'lishi mumkin. U insonning sog'lig'i, ruhiy holati, qadr-qimmati va normal hayot kechirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlik oilada, ta'lim muassasalarida, ish joyida yoki jamiyatning boshqa sohalarida uchrashi mumkin. Shu sababli u nafaqat alohida shaxsning, balki butun jamiyatning muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Zo'ravonlik bo'yicha hozirgi kunga qadar ko'pgina olimlar tadqiqotlar olib bormoqda. Shunday bo'lsa ham asl haqiqat, tub ildizni topishda turlicha nazariyalar ilgari surilmoqda. Misol tariqasida: **Erik From** “Zo'ravonlik biologik emas, ko'proq ijtimoiy muhit mahsulidir.”¹²² desa, **Zigmunt Freyd** “Freydning psixanalitik nazariyasiga ko'ra, agressiya insonning tug'ma instinktlaridan biri bo'lib, u o'lim instinkti (Tanatos) bilan bog'liq. Ushbu instinkt insonning destruktiv energiyasini tashqi obyektlarga yo'naltirishi natijasida agressiv va zo'ravon xatti-harakatlar yuzaga keladi.”¹²³ deydi. **Albert Bandura** “Zo'ravonlik tug'ma emas, balki kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganiladi.” degan nazariyalarni oldinga suradi. Albatta ushbu xulosalar ancha yillik izlanish, taqdiqotlar va chuqur mehnat zaminida aytilganini o'quvchi biladi. Bu borada ushbu maqolada bir qancha olimlarning nazariyalari qisman o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. **Albert Banduraning zo'ravonlikning o'rganilishi borasidagi tadqiqotlariga to'xtalsak.** Albert Bandura (1925–2021) zo'ravonlik va agressiv xulq-atvorning shakllanishini tushuntirishda eng mashhur psixologlardan biri hisoblanadi. U yaratgan **Ijtimoiy o'rganish nazariyasiga** ko'ra, inson xulq-atvorining katta qismi kuzatish, taqlid qilish va tajriba orqali o'rganiladi.¹²⁴

Banduraning fikricha, bolalar va o'smirlar zo'ravonlikni bevosita o'zlari boshdan kechirish orqali emas, balki ota-onalar, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari yoki boshqa namuna bo'luvchi shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali ham o'zlashtiradilar. **Agar agressiv xulq mukofotlansa yoki jazolanmasa, uni takrorlash ehtimoli ortadi**¹²⁵.

1961-yilda Bandura tomonidan o'tkazilgan mashhur “**Bobo Doll Experiment**” natijalari shuni ko'rsatdiki, agressiv harakatlarni kuzatgan bolalar keyinchalik o'sha xatti-harakatlarni

¹²² The Anatomy of Human Destructiveness. 1973. Erich Fromm

¹²³ Freyd S. *Civilization and Its Discontents*. – London: Hogarth Press, 1930.

¹²⁴ Social Learning Theory, 1977, Albert Bandura

¹²⁵ Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.

takrorlashga moyil bo'ladilar. Bu tadqiqot zo'ravonlikning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ilmiy jihatdan isbotladi¹²⁶.

Shu sababli, oilaviy zo'ravonlik muhitida voyaga yetayotgan o'smirlar kelajakda agressiv xulq-atvorni namoyon etishi yoki zo'ravonlikni muammolarni hal qilishning odatiy usuli sifatida qabul qilishi mumkin.¹²⁷

Bandura nazariyasiga ko'ra, zo'ravonlik biologik omillardan ko'ra ko'proq ijtimoiy muhit va kuzatish orqali o'rganiladi. Shu bois oilaviy zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning ijtimoiy adaptatsiyai o'rganishda ijtimoiy o'rganish mexanizmlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Zo'ravonlikning psixologik xususiyati uning insonning hissiy holati, tafakkuri, xulq-atvori va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Psixologik nuqtai nazardan, zo'ravonlik shaxsning xavfsizlik hissini buzadi, o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi hamda doimiy qo'rquv, xavotir va ruhiy zo'riqishni yuzaga keltiradi. Zo'ravonlikka duch kelgan insonlarda o'zini qadrlash darajasining pasayishi, ijtimoiy munosabatlardan chekinish, tajovuzkorlik yoki aksincha, passivlik kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

Ayniqsa, bolalar va o'smirlarda zo'ravonlikning psixologik ta'siri yanada chuqurroq bo'lib, ularning emotsional rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Uzoq muddat davom etgan zo'ravonlik natijasida shaxsda doimiy stress, tushkunlik, xavotir, o'ziga ishonchsizlik va atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik shakllanishi mumkin. Ba'zi hollarda zo'ravonlikka uchragan shaxslar keyinchalik o'zlari ham agressiv xatti-harakatlarni namoyon etishga moyil bo'ladilar.

Psixologiya fanida zo'ravonlik shaxsning ruhiy salomatligi va ijtimoiy faoliyatiga zarar yetkazuvchi omil sifatida baholanadi. Shu sababli zo'ravonlik nafaqat jismoniy zarar yetkazuvchi harakat, balki insonning psixologik farovonligi, shaxsiy qadr-qimmat va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Zo'ravonlik jamiyat hayotida uchraydigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisalardan biri bo'lib, u insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur hodisa inson huquqlari va erkinliklarining buzilishiga olib kelishi bilan birga, shaxs rivojlanishi hamda jamiyat barqarorligiga ham xavf tug'diradi. Shu sababli zo'ravonlik muammosi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va huquqshunoslik fanlarida keng tadqiq etilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti zo'ravonlikni shaxsga yoki shaxslar guruhiga nisbatan jismoniy kuch yoki hokimiyatdan qasddan foydalanish, yoxud undan foydalanish bilan tahdid qilish natijasida jismoniy jarohat, ruhiy zarar, rivojlanishdagi buzilish yoki o'limga olib keluvchi harakat sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif zo'ravonlikning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy oqibatlarini ham qamrab oladi.

¹²⁶ Bandura A., Ross D., Ross S.A. *Transmission of Aggression Through Imitation of Aggressive Models* // Journal of Abnormal and Social Psychology. – 1961. – Vol. 63. – No. 3. – P. 575–582.

¹²⁷ *Aggression: A Social Learning Analysis*, 1963, Albert Bandura

Zo'ravonlikning psixologik mohiyatini tushuntirishda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Amerikalik psixolog **A. Bandura** zo'ravonlik va agressiv xulq-atvorning shakllanishini ijtimoiy muhit bilan bog'laydi. Uning fikricha, insonlar agressiv xatti-harakatlarni kuzatish, taqlid qilish va o'rganish orqali o'zlashtiradilar. Agar bola oilada yoki atrof-muhitda zo'ravonlikni muntazam kuzatsa, u bunday xulq-atvorni me'yoriy holat sifatida qabul qilishi mumkin. Rus psixologiya maktabi vakili **L.Vygotsky** shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Uning nazariyasiga ko'ra, bolaning ruhiy rivojlanishi avvalo u yashayotgan ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu bois oiladagi zo'ravonlik va nizolar bolaning emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, **A.N. Leontiev** faoliyat nazariyasida shaxs rivojlanishi va xulq-atvorining shakllanishi ijtimoiy munosabatlar hamda faoliyat jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson shaxsi ijtimoiy muhitda egallagan tajribasi va faoliyati davomida shakllanadi¹²⁸. **S.L. Rubinshteyn** esa shaxs va muhitning o'zaro ta'siri tamoyilini ilgari surib, inson xulq-atvori tashqi ijtimoiy sharoitlar hamda ichki psixologik omillarning birligi natijasida yuzaga kelishini asoslagan¹²⁹. Shu sababli oiladagi munosabatlar va tarbiya uslublari bolaning psixik rivojlanishi hamda xulq-atvor shakllanishida muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonlik olimlar ham zo'ravonlik muammosini oila psixologiyasi va shaxs rivojlanishi bilan bog'liq holda o'rganganlar. Xususan, **G'.Shoumarov** oila muhitining bola shaxsiga ta'sirini tadqiq qilib¹³⁰, oiladagi nizolar va nosog'lom munosabatlar bolalarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. **V.Karimova** esa oilaviy munosabatlar va psixologik muhitning shaxs kamolotidagi ahamiyatini yoritib, sog'lom oilaviy muhit farzandlarning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy barqarorligi uchun muhim omil ekanligini ko'rsatgan¹³¹.

Zo'ravonlikning oqibatlari ayniqsa bolalar va o'smirlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda xavotir, tushkunlik, tajovuzkorlik, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi hamda ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklar kuzatiladi. Uzoq muddatli zo'ravonlik esa shaxsning normal rivojlanishiga to'sqinlik qilib, uning ijtimoiy adaptatsiyasini murakkablashtiradi. Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili zo'ravonlikni shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazuvchi, ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi hamda insonning to'laqonli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Bandura, Vygotskiy, Leontiev, Rubinshteyn, Shoumarov va Karimovalarning ilmiy qarashlari zo'ravonlikning kelib chiqishi, rivojlanishi va oqibatlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zo'ravon (inson) — boshqa shaxsga nisbatan jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy zarar yetkazuvchi, uni nazorat qilish, qo'rqitish, bo'ysundirish yoki o'z hukmini o'tkazishga

¹²⁸ Leontiev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 s.

¹²⁹ Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 s.

¹³⁰ Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 320 b.

¹³¹ Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 170 b.

intiluvchi shaxsdir. Psixologiya fanida zo'ravonlik shaxslararo munosabatlarda kuch va nazoratni qo'lga kiritish vositasi sifatida talqin qilinadi. Zo'ravon o'z harakatlari orqali jabrlanuvchining qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini cheklaydi hamda unda qo'rquv, xavotir, ishonchsizlik va ruhiy tushkunlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Agressor(inson) - tajovuzkor xulq-atvorni namoyon qiluvchi shaxs bo'lib, uning harakatlari ochiq yoki yashirin shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Agressiya haqorat qilish, tahdid qilish, kamsitish, urish, turtish, mensimaslik yoki psixologik bosim o'tkazish kabi ko'rinishlarda uchraydi. Ilmiy adabiyotlarda agressiya ko'pincha g'azab, frustratsiya, hukmronlikka intilish yoki salbiy emotsiyalarni boshqarishdagi qiyinchiliklar natijasi sifatida izohlanadi.

Oilaviy va ijtimoiy munosabatlar doirasida zo'ravon shaxs ko'pincha agressiv xatti-harakatlar orqali o'z ustunligini saqlashga harakat qiladi. Shu sababli har bir zo'ravon ma'lum darajada agressor hisoblanadi, biroq har bir agressiv xatti-harakat zo'ravonlik darajasiga yetmasligi mumkin. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda zo'ravon shaxsning asosiy belgilariga empatiyaning pastligi, boshqalarni nazorat qilishga intilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaslik, aybni boshqalarga yuklash va manipulyativ xulq-atvor kiradi.

Zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslarda ma'lum psixologik va fiziologik jarayonlar kuzatiladi. Zamonaviy psixologiya, nevropsixologiya va biologiya fanlari zo'ravonlik xulq-atvori nafaqat ijtimoiy omillar, balki miya faoliyati, emotsiyalarni boshqarish mexanizmlari va gormonal tizim bilan ham bog'liqligini ta'kidlaydi.

Psixologik jihatdan zo'ravon shaxslarda empatiya, ya'ni boshqa insonning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyati nisbatan sust rivojlangan bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday shaxslar nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish o'rniga, kuch ishlatish yoki bosim o'tkazish orqali muammoni yechishga moyil bo'ladilar. Ularda g'azabni boshqarish qiyinligi, impulsivlik, frustratsiyaga chidamlilikning pastligi va boshqalarni nazorat qilishga kuchli ehtiyoj kuzatiladi. Ayrim hollarda zo'ravonlar o'z harakatlarini oqlash uchun kognitiv buzilishlardan foydalanadilar, ya'ni ular jabrlanuvchini aybdor deb hisoblaydilar yoki o'z zo'ravonligini "tarbiya", "intizom" yoki "haqlikni tiklash" deb izohlashga urinadilar.

Nevropsixologik tadqiqotlar miya faoliyatidagi ayrim o'ziga xosliklarni ham aniqlagan. Xususan, bosh miyaning oldingi qismi — prefrontal korteks insonning o'zini nazorat qilishi, qaror qabul qilishi va xatti-harakatlarini boshqarishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarda agressiv va zo'ravon shaxslarda ushbu hudud faolligining pasayishi kuzatilgan. Natijada inson hissiyotlarini nazorat qilishda qiynaladi va impulsiv harakatlarga tezroq beriladi. Shu bilan birga, miyaning amigdala deb ataluvchi qismi xavf va g'azab reaksiyalarini boshqaradi. Ayrim zo'ravon shaxslarda amigdalaning haddan tashqari faolligi sababli oddiy vaziyatlar ham tahdid sifatida qabul qilinib, tajovuzkor javob reaksiyasi yuzaga kelishi mumkin.

Fiziologik jihatdan esa zo'ravonlik paytida organizmda "kurash yoki qochish" mexanizmi ishga tushadi. Bu jarayonda buyrak usti bezlari tomonidan adrenalin va noradrenalin gormonlari ajratiladi. Natijada yurak urishi tezlashadi, qon bosimi oshadi, mushaklar

taranglashadi va organizm jangovar holatga tayyorlanadi. Agar inson tez-tez g'azab va agressiyani boshdan kechirsa, stress gormoni bo'lgan kortizol miqdori ham o'zgarishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlarda surunkali agressiv xulq-atvorga ega shaxslarda gormonal muvozanatning buzilishi kuzatilgan.

Biologik omillar orasida testosteron gormoni ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar testosteron darajasining yuqoriligi agressiv xatti-harakatlar bilan ma'lum darajada bog'liq ekanligini ko'rsatgan. Biroq zamonaviy olimlar zo'ravonlikni faqat gormonal omillar bilan tushuntirib bo'lmashligini, ijtimoiy muhit, tarbiya, bolalikdagi travmalar va shaxsiy tajribalar ham katta rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Mashhur nevropsixolog **Adrian Raine** o'z tadqiqotlarida zo'ravon jinoyatchilarda prefrontal korteks faoliyati pasayganligini aniqlagan¹³². Shuningdek, agressiya bo'yicha tadqiqotlari bilan tanilgan **Leonard Berkowitz** agressiv xulq-atvorning yuzaga kelishida frustratsiya, salbiy hissiyotlar va tashqi qo'zg'atuvchilarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan. Leonard Berkowitzning **"Qurol effekti" (Weapons Effect)** eng mashhur kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. U bir qator eksperimentlar orqali shuni ko'rsatdiki, atrof-muhitda qurolning mavjudligi o'ziyiq avvaldan jahli chiqqan yoki asabiylashgan odamlarda agressiv reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. Mazkur tadqiqot inson xulq-atvoriga tashqi omillar qanday ta'sir ko'rsatishini namoyon etuvchi klassik ilmiy misollardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qurolning mavjudligi odamning ongli ravishda tajovuzkor bo'lish niyati bo'lmasa ham, agressiv xatti-harakatlar ehtimolini oshirishi mumkin. Boshqacha aytganda, insonning agressiv xulqi faqat uning ichki hissiyotlari yoki shaxsiy xususiyatlariga bog'liq emas, balki atrofda predmetlar va vaziyatlar ham bu xulq-atvorni qo'zg'atishi yoki kuchaytirishi mumkin. Shu sababli Berkowitz qurolni agressiyani yuzaga keltiruvchi yoki kuchaytiruvchi tashqi stimul sifatida baholagan. **Ilmiy xulosa:** Berkowitzning "qurol effekti" nazariyasiga ko'ra, qurolning ko'rinishi yoki mavjudligi inson ongida agressiya bilan bog'liq assotsiatsiyalarni faollashtiradi va natijada agressiv xatti-harakatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Bu hodisa ijtimoiy psixologiyada tashqi stimullarning inson xulq-atvoriga ta'sirini tushuntiruvchi muhim nazariyalardan biri hisoblanadi¹³³.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zo'ravonlik insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Tadqiqot davomida zo'ravonlikning mohiyati va psixologik xususiyatlari turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. O'rganilgan nazariyalar shuni ko'rsatdiki, zo'ravonlikning kelib chiqishini birgina omil bilan izohlash mumkin emas. Freyd agressiyani insonning tabiiy instinkti sifatida baholagan bo'lsa, Bandura uning kuzatish va taqlid qilish orqali

¹³² Raine A. The Anatomy of Violence: The Biological Roots of Crime. – New York: Pantheon Books, 2013. – 478 p.

¹³³ Berkowitz L., LePage A. Weapons as Aggression-Eliciting Stimuli // Journal of Personality and Social Psychology. – 1967. – Vol. 7. – № 2. – P. 202–207.

o'rganilishini ilmiy jihatdan asoslagan. Vygotskiy, Leontiev, Rubinshteyn, Shoumarov va Karimovalarning qarashlari esa ijtimoiy muhit hamda oilaviy munosabatlarning shaxs rivojlanishidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Shunday qilib, zo'ravonlik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi ko'p qirrali hodisa ekanligi aniqlandi. Mazkur holat zo'ravonlikning oldini olish, uning oqibatlarini kamaytirish hamda zo'ravonlikka uchragan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda kompleks psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Zo'ravonlik muammosini chuqur o'rganish esa sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish, yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The Anatomy of Human Destructiveness. 1973. Erich Fromm
2. Freyd S. Civilization and Its Discontents. – London: Hogarth Press, 1930.3
3. Social Learning Theory, 1977, Albert Bandura
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
5. Bandura A., Ross D., Ross S.A. Transmission of Aggression Through Imitation of Aggressive Models // Journal of Abnormal and Social Psychology. – 1961. – Vol. 63. – No. 3. – P. 575–582.
6. Aggression: A Social Learning Analysis, 1963, Albert Bandura
7. Leontiev A.N. Deyatel'nost. Soznanie. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 s.
8. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 s.
9. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 320 b.
10. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 170 b.
11. Raine A. The Anatomy of Violence: The Biological Roots of Crime. – New York: Pantheon Books, 2013. – 478 p.
12. Berkowitz L., LePage A. Weapons as Aggression-Eliciting Stimuli // Journal of Personality and Social Psychology. – 1967. – Vol. 7. – № 2. – P. 202–207.